

Maktabgacha ta'lismi tizimini rivojlantirish jarayonlarida pedagogik-psixologik bilimlarini ahamiyati

Dilorom Qurbanova Asqarova
Namangan davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagog mutaxassislar doimiy ravishda pedagogik va psixoligik jihatdan o'z ustida ishlashi, muntazam ravishda pedagogika va psixologiya fanining dolzarb muamolari zamonaviy ta'limga eng yangi interfaol usullari va ta'lismi texnologiyalari va yutuqlar bilan tanishib borishi kerakligini, ularning ta'lismi - tarbiya bilan bevosita va bilvosita bog'liq jarayonalrini maliy jihatdan o'rganilgan. Maktabgacha ta'lismi mutaxassislari tarbiyalanayotgan bolalarni xartomonlama yetuk mutaxassis qilib tarbiyalashda o'z bilim va malakarini doimiy takomillashtirib borishlari kerak.

Kalit so'zlar: ta'lismi-tarbiya, bilim, ko'nikma, malaka, tarbiyachi, texnologiya, interfaol metodlar, pedagog, rivojlanish, tadqiqot, yosh davrlari

The importance of pedagogical and psychological knowledge in the processes of development of the preschool education system

Dilorom Gurbanova Askarova
Namangan State Pedagogical Institute

Abstract: In this article, pedagogical specialists must constantly work on themselves pedagogically and psycholigically, regularly get acquainted with the latest interactive methods of modern education and educational technologies and achievements of the current problems of pedagogy and psychology, the process of which is directly and indirectly related to education, is studied in a financial way. Preschool education specialists must constantly improve their knowledge and skills in educating children who are being raised as a full-fledged mature specialist.

Keywords: education, education, knowledge, skills, qualifications, educator, technology, interactive methods, educator, development, research, age periods

Bugungi ta'lismi tizimida rivojlanishlar, muvaffaqiyatlarning fundamental asosini maktabgacha ta'lismi tizimidagi siyosiy, ma'rifiy isloxtlarni tashkil etmoqda. Siyosiy jarayonlarimiz va ijtimoiy jamiyatimizda bo'layotgan rivojlanish tendensiyalari, Prezident qarorlari, farmonlari ham bu tizimning rivojlanishiga imkon yaratmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonunni imzolashlari va qonun bilan, maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini, shuningdek, maktabgacha ta’lim va tarbiya jarayonida bolalarning ta’lim-tarbiya olishga doir shart sharoitlar, malakali mutaxasislar uchun davlat kafolatlari aniq belgilab berilgani, bu esa maktabgacha ta’lim tizimini tubdan islox qilish jarayonalarini amalyotdagi ahamiyatini ham belgilab berdi

Xususan, ta’lim tarbiyay jarayonini sifatli tashkil etish maqsadida har bir ta’lim olayotgan bolaning umumiy o‘rta ta’lim maktabiga va tashkilotiga o‘qishga kirishidan oldin davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida umumiy o‘rta ta’lim muassasiga majburiy bir yillik tayyorgarlikdan o‘tishga bo‘lgan huquqini kafolatlaydi, bu esa ularning maktabgacha ta’lim tizimida yetuk malakali mutaxsislar tomonidan olib boriladigan bilim ko‘nikma va malakalar bilan qurollantiradi. Qonunga muvofiq bu kabi jarayonlarni amalga oshirish davlat va nodavlat tmaktabgacha ta’lim tashkilotlari tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.



Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining yo‘nalishlari:

O‘zbekiston Respublikasi prezidentining «Maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarorida ko‘rsatilgan, maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi tasdiqlangan asosiy mezonnarni ham ijtimoiy ta’lim tizimini rivojlantirishni asosini tashkil etadi va ular quyudagilarni o‘z ichiga oladi:

- Maktabgacha ta’lim sohasidagi amalga oshiriladigan normativ - huquqiy bazani yanada takomillashtirish va amlyotga tadbiq etish;
- Maktabgacha yoshdagи bolalarning har tomonlama intellektual saloxiyatini oshirish va axloqiy shakilanishi estetik dunyoqarashini rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratib berish lozim;

➤ Bolalarni sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish, barcha bolarni ta'lim-tarbiyadan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, mazkur sohada davlat-siyosiy jarayonalarini ishtirokini taminlash va xususiy sherikligini rivojlantirish asoslari;

➤ Maktabgacha ta'lim tizimiga rivojlangan innovatsion ta'lim texnologiyalarini, ilg'or pedagogik tajriba va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

➤ Maktabgacha ta'limni boshqaruv tizimini takomillashtirish chora tadbirlari;

➤ Maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini moliyalashtirish jarayonlarini shaffofligi va samaradorligi;

➤ Maktabgacha ta'lim tizimiga maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat yurutuvchi pedagog xodimlarini tayyorlash, qayta malakasini oshirish, tanlovlardan asosida tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlardan foydalanish

➤ Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning sog'lom sog'lom turmush tazri, sifatli ovqatlanish ratsioni, sifatli tibbiy parvarishni ta'minlash;

Yuqorida belgilab qoyilgan vazifalarni amalgaga oshirish uchun biz pedagog faoliyat jarayonlarga kadrlarni bilim ko'nikma va malakalariga alohida e'tibor berishimiz lozim. Bu ko'nikmalarni shakilantirishda biz mutaxassislarining pedagogik-psixologik bilimlariga ham alohida e'tibor qaratamiz. Chunki bugungi kun talabi har bir pedagogning dars mashg'uloti jarayonilarida o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini bilishi ta'limning sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib bermoqda.


Pedagogik nuqtai nazaridan o'qituvchi doimiy ravishda o'z bilimlarini oshirish bilan shug'ullanishi zarurdir. Ta'limning barcha ko'rsatkichlari Z . I Kalmikovaning ta'kidlashicha, anglash tezligi, yangi vazifalar hal qilinishiga erishish mumkin bo'lgan aniq ma'lumotlar hajmi, uni bevosita hal qilishdagi bosqichlar soni natijasiga erishishga yordam beruvchi ma'lumotlar miqdori, shuningdek, masalani hal qilish uchun sarflangan vaqt miqdori, o'z-o'zining bilimini oshirish qobiliyati, ishchanlik va chiniqqonlik darajasiga bog'liq.

Pedagoglarning mustaqil bilim egallash va o'z ustida ishlashi uchun doimo o'z bilimlarini boyitib borishlari va kasbiy, umummadaniy axborotlar bilan to'ldirib, o'zining individual ijtimoiy tajribasini keng miqyosda, doimo yangi texnologiyalar bilan boyitib boradilar. Bu borada hazrati Bahouddin Naqshband "Chaqmoq tosh qo'limizga berilgan, faqat harakat qilish kerak, toki natija hosil bo'lsin" deb ta'kidlagan fikrlarini o'z ahamiyatini yo'qotmadi.

Pedagog faoliyatni boshqa faoliyat turlari kabi o'z motivatsiyasi, maqsadi, predmeti, vositalari, usullari, mahsuli va natijasini aks ettiruvchi pedagogic-psixologik bilimlar mazmunni ifodalaydi. Pedagogik faoliyatning vositasi sifatida ilmiy (nazariy va empirik) bilimlarni ko'rish mumkin.

Pedagog faoliyatida ijtimoiy - madaniy malakalarni egalsh, amalyotda ko'rsatish (illyustratsiya) va treninglar orqali mustaxkamlash orqali ishlatiladi. Pedagogik faoliyatning mahsuli bo'lib o'quvchining aksiologik emotsiyonal holatlarini, baholash

mezonlarini aks ettiruvchi individual malakasining shakllanganlik darajasini ifodalaydi. Mativatsiyalarning asosiy ko‘rinishlarini ko‘rib chiqamiz.



Pedagogning bolalarga nisbatan munosabatidagi emotsiyonal - qadriyatlari yondashuvi uning munosabat uslubidagi motivatsion jihatlari, shuningdek, bir vaqtning o‘zida uning o‘quvchilarga bo‘lgan munosabati jarayonida xulqiga ta’sir ko‘rsatuvchi operatsional jihat bilan belgilanishini qayd qilish darkor.

Bu kabi jarayonlarni biz V.Kessel tadqiqotlarida o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga bog‘liq holda o‘qituvchilarning mashhurlik va mashhur emaslik motivlari o‘rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘qituvchining mashhurligi ko‘p jihatdan uning materiallarni ko‘rgazmali, jonli va muammoli tarzda yetkaza olish qobiliyatiga bog‘liq.

Ko‘pchilik psixologlar, shu jumladan O‘rta Osiyo mutafakkirlari ham zamonaviy o‘qituvchilar uchun zarur xislatlarni alohida ta’kidlashgan.

Mutafakkirlarimizdan Abu Ali ibn Sino fikricha “O‘qituvchi matonatli, sof vijdonli, rostgo‘y va bolani tarbiyalash metodlarini, axloqiy qoidalarni yaxshi biladigan inson bo‘lmog‘i lozim. O‘qituvchi o‘quvchining ichki va tashqi dunyosini o‘rganib, uning aql qatlamlariga kira olmog‘i lozim”¹. Ulug‘ mutafakkirlarimizdan Alisher Navoiy ham o‘quvchi mehnatini xolisona baholar ekan “Agar shogird podsholikka erishsa ham, uncha (muallimga) qulluq qilsa arziydi”, kabi satrlarni bitadi.

Xulosa: Pedagog doimiy ravishda pedagogik va psixologik jihatdan o‘z ustida ishlashi kerak. U muntazam ravishda pedagogika va psixologiya fanining dolzarb muamolari zamonaviy ta’lim texnologiyalaei eng yangi interfaol ta’lim texnologiyalriva yutuqlar bilan tanishib borishi kerak, ular ta’lim - tarbiya bilan

¹ science.jdpu.uz · index · ppmeduAMALIYOTCHI PSIXOLOG FAOLOIYATIDA PERAGOGIK QOBILIYATLARNING

bevosita va bilvosita bog‘liqdir. Bu ta’lim psixologiyasi , tarbiya psixologiya, yosh davrlar psixologiyasi, differensial psixologiya, ijtimoiy psixologiya va shaxs psixologiyasidir. Zamonaviy o‘qituvchi ijtimoiy psixolog sohasida faoliyat olib bormasligi mumkin lekin u o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro ijobiy munosabatlarni yo‘lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy - psixologik sog‘lom muhitni yarata olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishii mummin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://president.uz/uz-O‘zbekiston Respublikasi va Prezident sayti>
2. O‘runtoyeva G.A Bolalar psixaloyiyasi. - M: “Akademiya”, 2010
3. Poddyakov N.M Maktabgacha yoshdagি bolani o‘yash. - M: “Pedagogika”, 1977
4. Выгоцкий Л.С. Вопросы детской психологии.-М.:СПБ.1999.
5. Yusupova R."Maktabgacha tarbiya pedagogikasi "T."O‘qituvchi 1993"у.
6. Asranbayeva, M. (2024). MUSTAQIL TA’LIM O‘QUV FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1(12), 505-508.
7. Asranboyeva, M. H. (2024). Bola shaxsini shakllanishiga oila muhitining ta’siri. Science and Education, 5(11), 177-182.
8. Асрланбоева, М. Х. ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ РОДИТЕЛЬСКИХ ОТНОШЕНИЙ В СЕМЬЕ НА ОБРАЗОВАНИЕ ДЕТЕЙ. ВЕСТНИК ИНТЕГРАТИВНОЙ ПСИХОЛОГИИ,
9. Kamolova, A. (2022). Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasining manbalarini o‘rganishning ilmiy-nazariy asoslari. Fan va ta’lim” Ilmiy jurnali/Impact Factor , 3 , 590-592.
10. Xayrullayev, M. M. O. G. L., & Kamalova, A. O. Q. (2024). Kimyo fanlarini o ‘qitishda rolli o ‘yinlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari. Science and Education, 5(11), 187-190.
11. Kamolova, A. O., & Akramjonova, F. A. (2024). PEDAGOGIK FAOLIYAT JARAYONLARIDA INNAVATSION TA’LIM JARAYONLARI ORQALI PEDAGOGLAR SALOMATLIGINI SAQLASH. Экономика и социум, (6-1 (121)), 302-305.